

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 321.01:174:316.334.3

INSON QADRINI TA'MINLASHDA DEMOKRATIK QADRIYATLARNING O'RNI
РОЛЬ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ДОСТОИНСТВА
ЧЕЛОВЕКА

DEMOCRATIC IN ENSURING HUMAN DIGNITY THE ROLE OF VALUES

Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kishilik jamiyatining rivojlanishi davomida ma'naviy madaniyat insonlar orasidagi xatti-harakatlar, aloqa va munosabatlar orqali takomillashib kelgan. Hozirgi zamon inson haqidagi ta'limotlar bir tomondan, o'zidan oldingi qarashlarni ijodiy davom ettirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarixiy taraqqiyotning nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini belgilaydi va istiqbollarini ko'rsatadi. Demokratik qadriyatlar tizimida inson haqidagi ta'limotlar g'oyat xilma-xil, muqobil ta'limotlardan iborat bo'lib, bir tomondan, kompleks-tizimli tadqiq etishni, ikkinchi tomondan, "ta'limotlar ummoni" dan inson ma'naviy rivojini yuksaltirishga, milliy istiqbol g'oyasini mustahkamlashga, obyektiv haqiqatni anglab etishga, zamon talabiga qay darajada javob bera olishi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье говорится, что в ходе развития человеческого общества духовная культура совершенствовалась посредством поведения, общения и отношений между людьми. Современные учения о человеке, с одной стороны, творчески продолжают предыдущие взгляды, а с другой стороны, определяют теоретические, методологические, практические аспекты исторического развития и показывают перспективы. В условиях глобализации учения о человеке чрезвычайно разнообразны, состоят из альтернативных учений, освещающих, с одной стороны, комплексно-системное исследование, с другой стороны, способность человека из "океана учений" повышать духовное развитие, укреплять идею национальной независимости, понимать объективную истину, отвечать требованиям времени.

Abstract

In this article, during the development of human society, spiritual culture has been improved through actions, connections, and relationships between people. Modern teachings about man, on the one hand, are a creative continuation of previous views, and on the other hand, determine the theoretical, methodological, and practical aspects of historical development and show its prospects. In the context of globalization, the teachings about man are extremely diverse, consisting of alternative teachings, on the one hand, complex-systemic research, and on the other hand, from the "ocean of teachings" to enhance the spiritual development of man, to strengthen the idea of national independence, to understand objective truth, to what extent it meets the requirements of the time.

Kalit so'zlar: davlat-jamiyat-inson, ijtimoiy, siyosiy, inson qadri, demokratik qadriyatlar, institut, globallasuv, tarixiy taraqqiyot, umumbashariy, komil inson.

Ключевые слова: государство-общество-человек, социальный, политический, человеческое достоинство, демократические ценности, институт, глобализация, историческое развитие, общечеловеческий, совершенный человек.

Key words: state-society-human, social, political, human dignity, democratic values, institution, globalization, historical development, universal, perfect human.

KIRISH

"Yurtimizda uzoq yillar davomida "davlat-jamiyat-inson" tamoyiliga amal qilinib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi"[1,59.]. Bugungi global va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida inson qadri jamiyat rivojining asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Demokratik boshqaruv tizimida inson qadri nafaqat huquqiy kafolatlar orqali, balki boshqaruv tizimining mazmun-mohiyati va amaliy faoliyati orqali ta'minlanadi.

Yangi O'zbekiston siyosiy kursda inson qadri, demokratik qadriyatlar va boshqaruvning insonparvar tamoyillari asosiy o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu mavzu bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Davlat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi tahlil siyosiy falsafa, huquqshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun asosiy masala hisoblanadi. Bu uchlik o'zaro

FALSAFA

bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tuzilmani tashkil etadi: davlat - institut va siyosiy mexanizm, jamiyat - ijtimoiy munosabatlar to'plami, inson esa - davlat va jamiyatning markaziy subyekti hisoblanadi. Bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. Eng muhimi, biz ko'p yillar davomida amal qilib kelayotgan "davlat-jamiyat- inson" tamoyilini o'zgartirdik"[2,234.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Jamiyat boshqaruvi negizida ma'naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlar, milliy g'oya, madaniy meros, o'zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta'limni uzviylik va uzluksizligini ta'minlash hamda barkamol avlod tarbiyalashdan iborat. "Davrlar nafasi va xalqning ehtiyoj hamda manfaatlari, intilish va orzu-havaslariga monand ravishda u goh ezgulik va adolat, goh qudratli davlat va adolatli shoh goh komil inson va ma'rifatli jamiyat bilan bog'liq oliyanob g'oyalarda namoyon bo'lgani ma'lum. Ana shu ezgu orzu dastlab, miloddan oldingi davlarda "Avesto"da o'z talqinini topgan hayotiy g'oyada mujassam edi, desak to'g'ri bo'ladi. Ayni shu orzu "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" tamoyilining xalq tafakkuri va turmush tarzidan mustahkam o'rin olishga sabab bo'ldi. Shu tariqa ezgulik va insonparvarlik ruhida yashash, bu qadriyatlarni himoya qilish xalqimiz mentaliteti va ma'naviyatining muhim tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylandi"[3,156.].

"Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir. Yozma manbalarga ko'ra, "Avesto"ni mo'baslar avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga olib o'tib, asrlar osha saqlaganlar. Dastavval mil. I-II asrlarda Arshakiylar davrida "Avesto" qismlarini to'plash boshlangan. Keyinchalik sosoniy Ardasher Popakon va Shopur davrida uning to'liq nusxasi yaratilgan. Ana shu nusxaning ikki qo'lyozmasi bugungi kunda Hindistonning Mumbay shahridagi zardushtiylarning madaniy markazi-Koma nomli institutda va Kalkuttadagi davlat kutubxonasida saqlanmoqda. Markaziy Osiyolik xalqlardan shakllangan dunyoqarash va borliqqa nisbatan munosabat keyinchalik jahon tarixi va madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shuvchi diniy-falsafiy fikrlar rivojiga zamin yaratdi. Shu nuqtayi-nazardan ham Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlarni eng asosiy rivojlanish ibtidosi zardushtiylikka borib taqaladi.

Zardushtiylik ta'limoti umumbashariy madaniyatning yuksak cho'qqisiga aylanishiga va Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrlarining eng bebaho qismi sanalishiga yana bir omil shundaki, u butun bashariyatni, olamni komillikka yetkazmoq uchun faqat pok niyatlik bilan mehnat qilishga, fidoiylikka, yaratuvchanlikka, komil inson bo'lishga, tabiatni asrash va jamiyat barqarorligiga intilishga, yovuzlik ustidan ezgulik g'alaba qilishi uchun ko'maklashishga da'vat etgan[4,76.].

Zardushtiylik - dunyo tarixidagi eng qadimiy dinlardan biri bo'lib, uning ta'limoti falsafiy va ma'naviy jihatdan yuqori darajada rivojlangan. Zardushtiylik ta'limoti **axloq, insoniyat qadri, hayot va adolat tushunchalarini** asosiy tamoyil sifatida qo'ygan. Bu ta'limotning g'oyalari faqat diniy sohaga emas, balki umumbashariy madaniyat va falsafiy fikrlar rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Markaziy Osiyoda Zardushtiylik ko'p asrlar davomida madaniy, ijtimoiy va falsafiy hayotning muhim qismi bo'lib kelgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, insoniyat tarixida ilk davlatchilik paydo bo'lgandan to hozirgi kunlarimizga qadar insonlarning ilm – ma'rifiy va ma'naviy qiyofasiga, jamiyatning ta'limiy – madaniy saviyasi rivojiga katta e'tibor qaratilib kelingan. Sababi, biror mamlakatni farovonligi, tinchligi hamda iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy jarayonlarni ijobiy tomonga yo'naltiradigan asosiy "muruvvatni" o'sha davlat fuqarolarining intellektual salohiyati belgilab beradi. Shuni inobatga olgan, olimu-dono allomalarimiz, mutafakkirlarimiz adolatli davlat va fozil jamiyat haqidagi ta'limotlarining markaziga "Komil insonni" qo'yishganlari bejiz emas. "Komil inson" ularning asarlarida dunyoviy va diniy ilmlarga ega bo'lgan haqiqiy vatanparvar, ma'naviy etuk, axloqiy kamol topgan ideal shaxs sifatida talqin etilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan yuksak darajadagi ma'naviy-madaniy meros nafaqat shu hududda, balki butun bir Sharq va G'arb falsafasini shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Chunki jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida butun

dunyoda e'tirof etilayotgan Vatanimiz hududida falsafiy-ilmiy fikrlar va g'oyalarning rivojlanish tarixi uzoq o'tmishlarga borib taqaladi.

Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, falsafiy fikrlar taraqqiyotining ibtidosi sal kam uch ming yillik tarixga egadir.

XXI asr globallashuv sharoitida insonning hayoti, yashash tarzi, ma'naviy-ruhiy barkamolligi masalalari asosiy o'ringa chiqdi. Insoniyat taraqqiyotining har bir davrida axloqiy va ma'naviy kamolot masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'naviy-madaniy hayot kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishga, insonning o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlariga moslashga va shaxsning bevosita xulq-atvorlari, muloqotlarini ifodalashga qaratiladi[5,44].

Kishilik jamiyatining rivojlanishi davomida ma'naviy madaniyat insonlar orasidagi xatti-harakatlar, aloqa va munosabatlar orqali takomillashib kelgan. Hozirgi zamon inson haqidagi ta'limotlar bir tomondan, o'zidan oldingi qarashlarni ijodiy davom ettirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarixiy taraqqiyotning nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini belgilaydi va istiqbollarni ko'rsatadi. Globallashuv sharoitida inson haqidagi ta'limotlar g'oyat xilma-xil, muqobil ta'limotlardan iborat bo'lib, bir tomondan, kompleks-tizimli tadqiq etishni, ikkinchi tomondan, "ta'limotlar ummoni" dan inson ma'naviy rivojini yuksaltirishga, milliy istiqloq g'oyasini mustahkamlashga, obyektiv haqiqatni anglab yetishga, zamon talabiga qay darajada javob bera olishiga qarab yondashishni taqozo qiladi[6,55.]. Hozirgi kunda turli ta'limotlarni o'rganib, atroflicha tahlil qilib zamonamiz talabiga binoan to'g'ri xulosa chiqarish va ulardan yoshlarimizni ilmiy-ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirish, jamiyatda ma'naviy-madaniy hayotni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega.

Kelajagi buyuk va qudratli yangi O'zbekistonni bunyod etishda ma'naviy barkamol insonni shakllantirish milliy-ma'naviy tiklanishning asosidir, chunki "Ma'naviy tiklanish fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziyolilarning paydo bo'lishi demakdir"[7,36.]. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ma'naviy tiklanish jarayonini ham boshlab berdi. Mustaqillik ruhi - bu millatning o'z tarixi, madaniyati va qadriyatlar bilan bog'lanishi, o'zligini anglashi va rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yangi avlod fikrlash tarzi milliy qadriyatlar va mustaqillik g'oyalari orqali shakllandi.

MUHOKAMA

Inson ma'naviy hayoti va bilimlarining qadimiy tarmog'i hisoblanadi. Barcha mamlakatlar va mintaqalardagi odamlar qariyb uch ming yildan buyon turli shakllarda, avval afsonalar shaklida, keyinchalik muayyan nazariy tuzilmalar tizimi va bir butun konsepsiyalar shaklidagi "insonni o'rab turuvchi olam aslida nima hamda unda inson qanday o'rin va vazifani egallaydi?" degan savolni ko'ndalang qo'yadi va bu savolga javob berishga urinadi. Falsafaning muayyan tarixiy tabiati nafaqat davr o'lchovida balki makon-sivilizatsiya o'lchovida ham namoyon bo'ladi. Falsafa o'z davrinigina emas, balki muayyan sivilizatsiya, muayyan jamiyat, muayyan madaniyatning ham mahsulidir. G'arb va Sharq falsafiy an'analari, islom, xristian va buddaviylik falsafasi, totalitar va demokratik jamiyatlar falsafalari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Insonparvarlik g'oyalari hamda hayot falsafasi o'zining muammolari va tushunchalar apparatida insoniyat to'plagan amaliy hamda bilish tajribasini yig'adi, tabiiy va bashariy borliqning turli tomonlarini anglash bo'yicha qidiruvlarni uyg'unlashtirib birlashtiradi va tizimlashtiradi, zamonning "keskin tomir urishi"ni qayd etadi.

Insonning dunyoga bo'lgan asosiy (bilishga va qadriyatlarga doir) munosabatlariga taalluqli masalalar, bilish va taraqqiyot tabiatining kengligi, cheksizligini o'rganish, insoniyatni haqiqatga erishishga intilishi, yangi orzularni ro'yobga chiqarish va qidirish yo'llarini takomillashtirish, eski va yangi qadriyatlar to'g'risidagi savollarga javob izlaydi. XIX asr nemis faylasufi YE. Dyuring aytganidek, shunday lahza yetib kelsaki, unda bashariyat o'zini hamma narsani biladigan va endi bilmaydigan narsasi qolmagan hamda "oxirgi mutlaq haqiqat"[8,17.]ga erishdim deb hisoblasa, unda u ma'naviy mukammallikka intilmay qo'yadi va yangi orzularni qidirishni behuda mashg'ulot deb biladi va ehtimolki, bu bilan bashariyatning ma'naviy o'limi yaqinlashadi.

Hayot mazmuni, qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar yig'indisini bir mukammal tizimga keltirgan ta'limot sifatida hamda ijtimoiy-axloqiy, amaliy falsafa sifatida XIX asr oxirida "hayot falsafasi" mustaqil va ahamiyatli yo'nalishga aylanib, insoniyat madaniyatini tadqiq etish yuzaga keldi. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe inson haqida an'anaviy qarashlarni tahlil qilib, ularga baho berar ekan, odam bolasida maxluqlik va xoliqlik birlashib behat qudratli falsafiy tafakkurni odamni maxluqlikdan qutqarib, xoliqlik maqomiga ko'tarishga qaratadi. U o'zining "Zardusht tavallosi" nomli asarida sharq odami haqida fikr yuritib, insonni, uning yaxshiligini ulug'laydi. F.Nitsshe o'z falsafasida birinchi

FALSAFA

o'ringa axloq masalasini qo'yadi. Jamiyatda axloqiy, ma'naviy, madaniy hayotni rivojlantirish bilan insonning ruhiy, ma'naviy borlig'i ham boyib boradi. F.Nitsshe tartib to'g'risida ham o'z fikrlarini bildiradi. Inson adashmasligi uchun qalbida tartib bo'lishi kerak. Odamlar bir-birini yaxshi tushunsa, qalbi pok bo'lsa, jamiyatda ham uyida ham farovonlik, pokizalik bo'ladi[9,84.]. Inson, avvalambor, o'z ichidagi yovuzlikni yengishi kerak. Shunda ong ham o'zgarib, rivojlanib boradi, deydi F.Nitsshe. U insondagi ikki bir-biriga zid kuchlar haqida so'z yuritarkan, ularni go'zallikka intilish, mutanosiblikka erishish g'oyalari orqali birlashtirishga harakat qiladi. Bu deyarli bajarib bo'lmaz vazifani iroda orqali amalga oshirish mumkinligini gapiradi. Albatta, bu hayotiy kurash jarayoni insondan juda katta ma'suliyatni, harakatni, mehnatni talab etadi. Lekin ming afsuslar bo'lsinkim, insonlar hayoti buni aksini isbotlaydi.

Nitsshening ta'kidlashicha, insoniyat taraqqiyoti hozirgi davrda yuqoriga qarab emas, balki pastga qarab ketmoqda. Moddiy manfaatlar, instinktlar, ayniqsa, taqlid qilish instinkti bizning jamiyatimiz insonlariga xos xususiyat bo'lib, manfaatdorlik, xudbinlik ruhiyati tobora oliyanoblik xislatlarini siqib chiqarmoqda[10,45.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatda yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga dahldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual-ma'naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan yuksak malakali mutaxassislar etib tarbiyalash oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan gumanitar va ijtimoiy-falsafiy fanlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlar, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadigan, ma'naviy dunyosini boyitadigan, ularning ongida ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydigan ijtimoiy-falsafiy fanlarini mazmunan takomillashtirish hamda ta'lim samaradorligini yanada oshirishni talab etadi. Tarixiy xotira ruhiy-tarixiy voqelik sifatida insonning bugunini o'tmishi bilan, tarixiy hayotini kelajak o'ylari bilan bog'laydi. Unda retrospektiv informatsiyalarni, ajdodlar to'plagan tajribalarni asrash va ularga tayangan holda yangi ijtimoiy informatsiyalar va ijtimoiy tajribalar orttirish, kashf etish maqsadi mavjuddir.

Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol xayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muxim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir jamiyatda shaxsning fikr va faoliyati uning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashiga bog'liq. Shaxsning jamiyatdagi mavjud g'oyalarga munosabati va hayotiy pozitsiyasi uning ijtimoiy rivoji, milliy qadriyatlarga bog'lanishi va shaxsiy faolligini belgilaydi. Mafkura esa shaxsning fikrlari, qarorlari va harakatlari asosida shakllanadigan ma'naviy va axloqiy mezon sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2022 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Инсон қадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари учун. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2022 й.
3. “Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Тарж. А.Махкам. –Тошкент: Шарқ, 2001й.
4. Болтабоев Х., Махмудов М. Бадиий-эстетик тафаккур тарихи. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2012й.
5. Восток – Запад: проблемы взаимодействия. История, традиции, культура. Ч.2. Новосибирск. НГПУ, 2007г.
6. Конрад Н.И. Запад и восток. – Москва: 1972г.
7. Тураев Б. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2010. №2.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХI аср бўсағасида: хафсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: “Ўзбекистон” 1998й.
9. “100 Мумтоз Файласуф”. Тақдирлар. Ҳикматлар. Афоризмлар. –Тошкент: “Янги аср авлоди”. 2015й.